



MUZRABOT

O'zbekiston—
kelajagi
buyuk
davlat

Gazeta 1969-yil 1-iyuldan chiqa boshlagan Ijtimoiy-siyosiy gazeta	Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi va tuman hokimligining nashri	2025-yil 15-yanvar Chorshanba № 1 (4497)
--	---	---

Халқ депутатлари туман Кенгаши сессияси

Халқ депутатлари Музработ тумани Кенгашининг учинчи сессияси бўлиб ўтди. Сессия ишига 16-Байналмилал сайлов округидан депутат С.Нурмаҳматов раислик қилди.

Сессияда “Музработ туманининг 2025 йилги маҳаллий бюджетини тасдиқлаш ҳамда туманда 2025 йил “Камбағалликдан фаровонлик сари” дастури доирасида танланган маҳаллаларда томорқа ерларини суғоришни яхшилаш бўйича дастурга киритилган тақдирларни кўриб чиқиш ва маъқуллаш ҳақида” туман Ҳокимининг биринчи ўринбосари С.Холниёзов, “Музработ туманида юридик ва жисмоний шахсларнинг қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерларига 2025 йил учун ер солиғи ставкаларини белгилаш ҳақида” туман солиқ инспекцияси бошлиғи Ф.Худаяров, “Музработ тумани хотин-қизлар муаммоларини ўрганиш ва “Аёллар дафтари”га киритилган эҳтиёжманд хотин-қизлар билан олиб борилган ишлар ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар

Маҳкамасининг 2022 йил 31 мартдаги 145-сон қарори бўйича “Аёллар дафтари”нинг 5-босқичига киритилган хотин-қизларни рўйхатдан чиқариш тўғрисида” туман Ҳокимининг ўринбосари, оила ва хотин-қизлар бўлими бошлиғи С.Бердиева маъруза қилдилар.

Сессияда, шунингдек, халқ депутатлари туман Кенгашининг тегишли доимий комиссиялари томонидан муҳокама этилган қуйидаги:

“Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг “Маҳаллалардаги муаммоларни ҳал этишда халқ депутатлари маҳаллий Кенгаши-лари депутатлари ва сенаторларнинг “Маҳалла етилиги” билан ўзаро ҳамкорлигини йўлга қўйиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2024 йил 4 апрелдаги КК-706-IV-сонли қарорининг ижроси тўғрисида”ги;

“Халқ депутатлари Музработ тумани Кенгаши ва доимий комиссияларининг 2025 йилга мўлжалланган иш режаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги;

“Қишлоқ хўжалигига

мўлжалланган ерлардан фойдаланиш ҳолатини ўрганиш натижалари тўғрисида”ги;

“Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг “Камбағалликни қисқартириш бўйича белгиланган устувор вазифаларнинг бажарилишини назорат қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2024 йил 29 ноябрдаги КК-6-V-сон қарори ижроси тўғрисида”ги;

“Халқ депутатлари Музработ тумани Кенгашининг “Музработ тумани маҳаллий бюджетининг 2024 йил 3-чорақ даромадлар режасини ошириб бажарилган қисми ҳисобидаги маблағларини мақсадли ишлатилиши тўғрисида” 2024 йил 6 декабрдаги VII-2-013-8-115-Қ/24-сон қарорининг иловаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги масалалар ҳам кўриб чиқилди.

Сессияда кўриб чиқилган масалалар юзасидан қарорлар қабул қилинди.

Шу билан халқ депутатлари туман Кенгашининг учинчи сессияси ўз ишини якунлади.



Туманимизда «Ватан ҳимоячилари куни» байрами нишонланди

Сарҳадларимиз посбонлари шарафига

Бутун мамлакатимизда бўлгани каби туманимизда ҳам Ўзбекистон Республикаси Қуролли Қучлари ташкил этилганлигининг 33 йиллиги ҳамда 14 январь – “Ватан ҳимоячилари куни” байрами зўр шодиёна билан нишонланди.

Дастлаб туманимиздаги Чегара қўшинлари ҳарбий қисми ҳарбий хизматчилари тантанали равишда ҳарбий параддан ўтдилар. Шундан сўнг “Дўстлик” маҳалласидаги “Бек” тантана-



лар саройида Ватан ҳимоячилари шодиёнаси шарафига байрам тадбири ўтказилди.

Тантананда Музработ тумани Ҳокими вазифасини бажарувчи Абдумуталиб Ара-



ман Ҳокимининг “Фахрий ёрлик” ва қимматбаҳо совғалари топширилди.

Музработ тумани ҳокимлиги Ахборот хизмати.

Суратда: байрам шодиёналаридан лавҳалар.

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining QARORI

Muzrabot tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrda VII-3-016-8-O-Қ/24-son qaroriga muvofiq hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrda 22-13/978-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuni ijo va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Muzrabot tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 104,310 milliard so‘m va xarajatlari esa 104,310 milliard so‘mga mab‘umot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Muzrabot tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 0,296 milliard so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetining 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, Muzrabot tumani mahalliy budjetiga umumiy davlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me‘yorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq hamda 2025-yil uchun tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti xazira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1,425 milliard so‘m miqdorida belgilansin. Bunda,

Sessiya raisi
2024-yil 27-dekabr. VII-3-022-8-115-Қ/24

S.NURMAHMATOV
Muzrabot tumani



Маънавий-маърифий тадбир

Оби-хаёт маҳалласидаги 7-умумтаълим мактабида туман ички ишлар бўлими ҳамда Республика Маънавият ва маърифат маркази туман бўлинмаси ҳамкорлигида жадидчилик ҳаракати намояндаларига бағишланган маънавий-маърифий тадбир ўтказилди.

Тадбирда дастлаб туман ИИБ бошлиғи Ў.Шукуров, туман маънавият ва маърифат бўлинмаси раҳбари Ш.Холтўраев ҳамда бошқалар сўзга чиқиб, жадидчи аждодларимизнинг орзу-интилишлари, ғоялари ва жасоратли ҳаракатлари хусусида муфассал сўз юритдилар. Шундан сўнг маърифатпарвар аждодларимиздан бири – Абдулхамид Қўпонга бағишланган ҳужжатли фильм намойиш этилди.

Тадбир ўқувчиларда бой таассурот қолдирди.

С.КУЛБОБОВ.

Жадид боболаримизнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти бизлар учун катта ибрат

Кейинги йилларда маърифатпарвар боболаримиз ғояларини ўрганиш ва ривожлантириш бўйича давлатимиз раҳбари томонидан илғор ташаббуслар илгари сурилмоқда. “Жадид” номли газета фаолиятининг йўлга қўйилиши, Бухородаги тарихий масканда жадидлар мероси давлат музейини ташкил этишга оид амалий ишлар бунинг ёрқин далилидир. Президентимиз томонидан Марказий Осиё худудида жадидларнинг миллий давлатчиликлари ва минтақавий ўзига хослик, фуқаролик жамиятининг ривожланишига қўшган улкан ҳиссасини қонунчилик ва тизимли асосда атрофчиликка ўрганиш долзарб масала бўлиб қолаётгани алоҳида қайд этилган эди. Аслида жадидлар мавзуси бир мақола, бир суҳбат ёки бир китобга сифмайдиган, қамрови кенг, мураккаб, оғир ва изтиробли мавзу. Ўзбекистон Фанлар академияси Тарих институти директорининг илмий ишлар бўйича ўринбосари, тарих фанлари доктори Дилноза ЖАМОЛОВА билан суҳбатимиз айни шу мавзуда бўлди.

– Тараққийпарвар жадид боболаримиз фаолияти, уларнинг ибратли ишлариغا бугун катта эътибор қаратилмоқда. Бунинг сабабларини нимада кўрасиз?

– Туркистонда XIX аср охири – XX аср бошида вужудга келган жадидчилик ҳаракати – миллий уйғониш, миллий озодлик ҳаракати эди. Россия империяси томонидан Туркистонни эгаллаш учун босқинчилик ҳужумининг бошланиши, Қўқон хонлиги ҳудудида Туркистон генерал-губернаторлигининг ташкил этилиши ҳамда уларнинг минтақадаги зўравонлик ва зулм сиёсати миллий ойдинларини бефарқ қолдирмади. Улар ўз атрофида босқинчиларга қарши курашиш учун бутун халқни жипслаштиришга ҳаракат қилди. Бунинг учун дастлаб, янги усул мактабларига асос солиб, диний фанлар билан биргаликда дунёвий фанларни

Касбий таълимда малакали кадрлар тайёрлаш тизими такомиллашади

Хабарингиз бор, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Касбий таълимда малакали кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва халқаро таълим дастурларини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2024 йил 16 октябрдаги ПФ-158-сон Фармонига асосан бутун мамлакатимизда бўлганидек, Музработ тумани касбунахунар мактаби негизида Музработ тумани политехникуми ташкил этилди. Шу муносабат билан муҳбиримиз **Музработ политехникуми директори, халқ депутатлари туман Кенгаши депутати Бахтиёр ҚУРБОНОВ** билан суҳбатда бўлди.

–Бахтиёр Габбаралиевич, дастлаб политехникумнинг ташкил этилиши ҳамда фаолиятининг асосий мақсад ва вазифалари ҳақида сўзлаб берсангиз.

–Политехникум Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги тасарруфидида фаолият кўрсатади. Термиз Давлат муҳандислик ва агротехнологиялари университети политехникумининг таълим жараёнига ўқув-методик ҳамда моддий-техник базасини мустаҳкамлашга қўмаклашади. Шунинг-



дек, вилоят Ҳокимининг қарори билан ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш учун ҳамкор тадбиркор бириктирилган. Политехникумда бошланғич касбий таълим дастурлари бўйича кадрлар тайёрлаш умумий ўрта таълим ташкилотининг 9-синфини тамомлаган ўқувчилар учун – давлат гранти асосида, камида умумий ўрта маълумотга эга бўлган бошқа талабгорлар учун – тўлов-контракт асосида амални олишга имконият бўлган ўрта маълумотга эга бўлган шахслар политехникумда ўрта ва ўрта махсус касбий таълим

дастурлари бўйича давлат гранти ва тўлов-контракт асосида таълим оладилар. Политехникум фаолиятининг асосий мақсади – Мехнат бозорига рақобатбардор, иқтисодиёт тармоқларида самарали ишлашга қодир, малакали кадрлар тайёрлаш ҳамда касбий таълим дастурларини жорий қилиш орқали турли ёшдаги шахсларнинг “Хаёт давомида таълим олиш” тамойили асосида таълим олишга бўлган талабларини қондириш ҳисобланади.

(Давоми 2-бетда.)

«Ўзбекистон — 2030» Фуқаролик жамиятининг муҳим бўғини

Ўзбекистон Республикаси Президенти 2024 йил 26 августда “Фуқаролик жамияти институтларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”-ги ПФ-124-сон Фармонини имзолади. Маълумки, фармонга янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, “Ўзбекистон–2030” стратегияси ҳамда 2021–2025 йилларда фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси ижросини таъминлаш, фуқаролик жамияти институтларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш шарт-шароитлар яратиш мақсади белгиланган.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, фуқаролик жамиятида

етакчи ўринда турадиган маҳалла институти фаолиятининг такомиллашуви давлат мустақиллигининг илк кунларида сиёсат даражасига кўтарилди. Маҳалла институти фаолиятига билдирилган ишонч сўнги йилларда янада ортиб, маҳалланинг ижтимоий муаммоларни ечишда у давлатнинг энг аянқин кўмакчисига айланди.

Бугунги кунда Ўзбекистон ички сиёсатида замонавий маҳалла иқтисодий ва демократик ўзгаришларни рўёбга чиқаришда муҳим аҳамият касб этмоқда. Аниқроғи, ҳозирда аҳолига моддий ва маънавий ёрдам кўрсатиш, жойлардаги мавжуд ижтимоий муаммоларни ечишда у давлатнинг энг аянқин кўмакчисига айланди.

Маҳалла институти – фуқаролик жамияти тизимида алоҳида аҳамият касб этмоқда. Фуқаролик жамияти йиллар давомида халқнинг фаровонли-

ги, кундалик ҳаёти, эҳтиёжи, ижтимоий ҳаёти билан боғлиқ бўлган кўпгина йўналишларда мавжуд муаммолар фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ҳамда секторлар орқали ҳал этилаётганлиги ҳам йилдан йилга маҳалланинг мавқеи ортиб бораётганини кўрсатмоқда.

Маҳалла фуқаролик жамиятининг муҳим бўғинларидан бири сифатида давлат ва жамият бошқарувида алоҳида ўрин тутмоқда. Бугунги кунга келиб маҳалла фуқаролик жамиятининг муҳим бўғини сифатида ижтимоий сиёсий ҳаётида катта аҳамият касб этмоқда.

Фуқаролик жамияти институтлари – фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари (маҳалла) партиялар, қасаба уюшмалари ва бошқа жамоат бирлашмалари ҳамкорлиги билан “Кучли давлатдан кучли жамият сари” концепциясини ҳаётга тадбиқ этишда энг муҳим ташкилий институтга айланди.

Ф.НОРМАМАТОВА,
туман Ҳокими маслаҳатчиси, меҳнат фахрийиси.

Касбий таълимда малакали кадрлар тайёрлаш тизими такомиллашади

(Бошланиши 1-бетда.)
Ўқув даргоҳимизнинг асосий вазифаларига тўхталадиган бўлсак, булар:
иктисодиёт соҳа ва тармоқларида талаб юқори бўлган тор доирадаги ва соҳавий касб ва мутахассисликлар бўйича тизимли фикрлаш, иш юритиш, замонавий ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш кўникмаларига эга ҳамда хорижий тилларни биладиган мутахассислар тайёрлаш;

иш берувчиларнинг талаб ва тақлифларига асосан кадрларга бўлган эҳтиёждан келиб чиқиб, иктисодиёт соҳа ва тармоқлари учун зарур бўлган малакали мутахассисларни тайёрлаш ҳамда ушбу жараёнда ҳамкор иш берувчи ташкилотлар фаол иштирок этишлари учун қулай шарт-шароитларни яратиш;

эгаллаган касб ёки мутахассислик бўйича меҳнат фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқини берадиган, юқори даражада сифатли билим олишни ва касбий тайёргарликни таъминлаш;

танлаб олинган касб ёки мутахассислик бўйича бир ёки бир неча квалификацияни эгаллаш жараёнида ўқувчиларнинг касбий лаёқат, кўникма ва малакаларини ошириш ва бош-қалардан иборат.

– Политехникумда таълим дастурларининг давомийлиги канча муддатни ўз ичига олади ва у таълимнинг қандай шаклларида амалга оширилади?

– Политехникумда фаолиятнинг асосий турларини амалга ошириш доирасида бир қатор асосий касбий таълим дастурлари бажарилади. Хусусан, 9-синф битирувчилари ҳисобидан шакллантирилган гуруҳларда бошланғич касбий таълим умумтаълим ва мута-

Ислохотлар — амалда

стурларида ўқишнинг норматив муддати 2 йил бўлган ҳолда ўқув жараёни камида 94 ҳафта давом этади ҳамда кундузги, дуал, кечки ва сиртки таълим шаклларида олиб борилади.

Билим юртимизда қўшимча касблар ва мутахассисликлар бўйича квалификация ва

ни ўташга кўмаклашадиган корхона билан ҳамкорлигиниғиз ҳақида тўхталсангиз.

– Политехникумда ишлаб чиқариш амалиётини самарали ташкил этиш ва битирувчилар бандлигини таъминлаш мақсадида вилоят Ҳокимининг қарори билан Сурхондарёдаги етакчи тadbirkorлардан бири Баҳодир Қодиров раҳбарлигидаги “Сурхон саноат

нуфузли, пешқадам таълим ташкилотларидан бири ҳисобланади. Муваффақиятларингиз ҳақида сўз юритсангиз.

– Янги ўқув йилида 3 нафар ўқувчимиз биология, хорижий тиллар ва информатика бўйича танловда туманда биринчи ва вилоятда фахрли ўринларни эгаллашди. “Беш ташаббус” спартакиадаси бўйича умумжамоа ҳисобида вилоятда 2-ўринни қўлга киритдик. 4 нафар волейболчи ўқувчи қизларимиз айна пайтда вилоят терма жамоаси таркибига республика биринчилигига тайёргарлик кўрмоқда.

Касблар қурик-танловининг вилоят босқичида ўқувчиларимиз пайвандлаш ва тикувчилик йўналишида 1-ўринни, автомобилларга техник хизмат кўрсатиш бўйича 3-ўринни олдилар. Утган ўқув йили бўйича битирувчиларимизнинг 25 нафари республикамиздаги турли олий таълим муассасаларига ўқишга киришга муяссар бўлди.

Дарвоқе, энг катта ютуғимиз бу опенбюджет танловида бўлди. Чунонки, 2023 йилнинг биринчи мавсумида 1 миллиард 200 миллион сўм ютиб олинган эди. Бу маблаг ҳисобига таълим ташкилоттимизнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаб олдик. 2024 йилнинг биринчи мавсумида эса яна омад кулиб бокди. Ютиб олинган 1 миллиард 159 миллион сўм эвазига ўқувчиларнинг автомобилларни бошқариш амалиётида фойдаланиши учун 4 та “Дамас” ва 1 та “ONIX” энгил ҳамда “ISUZU” юк автомобиллари сотиб олинди.

Ҳозирда таълим ташкилотимизда 399 нафар ўқувчи таҳсил олмақда. Уларга 7 йўналишда 23 нафар ўқитувчилар фан сирларидан, 17 нафар ишлаб чиқариш учталари амалиёт таърибасидан сабоқ бермоқда. Касбий таълимдаги ислохотлар янгидан-янги муваффақиятларимизнинг омили бўлиши, шубҳасиз.

Абдусалом ЙЎЛДОШЕВ
сухбатдош бўлди.

TARIXIMIZNING SIRLI SAHIFALARI

О'zbek xalqi turkiy tili xalqlar oilasiga mansubdir. Turkiy xalqlar esa insoniyat tamadduni poydevorini qo'yg'an, tarixi olis moziyga borib taqaladigan, shonli o'tmishga ega xalqlardan biridir. Ammo turkiy tili xalqlar tarixining olis o'tmishga oid, mifologiya va ertaklarga chulug'angan qismi haqidagi ma'lumotlar hanuz sirililigiicha qolmoqda. Bugun mustariylar bilan birga xalqimiz tarixining olis va sirli sahifalariga sayohat qilamiz.

Turklar tarixi
Ma'lumki, turkiy xalqlar va ularning avlodlari hozirgi kunlarda Osiyo va Yevropa qit'asining anchagina hududini egallagan ko'p sonli xalqlardir. Ular jahon tarixida juda katta iz qoldirishgan. Dunyoning biror xalqi turkiylarchalik ko'p sonli yirik saltanatlar barpo eta olishmagan: Attila saltanati, Bumin saltanati, Chingizxon, Botuxon, Saljuqiylar, Temuriylar, Boburiylar... Bular Oltoy-Turk xalqlari barpo etgan saltanatlarining bir qismi xolos.

Turk xalqining kelib chiqishi haqidagi rivojatlardan biri bilan tanishamiz...

Xitoy yozma manbalarida keltirilgan rivojatlardan birida Turk xalqining kelib chiqishi quyidagicha talqin qilinaadi...

G'arbda vahshiy dushmanlari turklarni qirib tashlaydilar. Butun xalqdan faqat o'n yoshli bola tirik qoladi, uning ham oyoq-qo'llarini kesib, qamishzor ko'lga (olimlarning fikricha bu ko'l hozirgi Boloton ko'li. Chunki shu ko'l yonida Attila qo'shinlari mag'lubiyatga uchragan) tashlaydilar. Bolani urg'ochi bo'ri topib, boqib oladi va oradan bir necha yil o'tib undan homilador bo'ladi. Bolaning tirik qolganligini eshitgan g'animlar uni topib o'ldiradilar. Bo'ri esa Oltoy tomonlariga qochib ketib, g'orlarda yashiribni yuradi va o'nta o'g'il, inson bolalarini dunyoga keltiradi. Keyinchalik shu o'nta o'g'il turklarning o'nta urug'iga asos soladi.

Bo'ringing nabiralardan biri Ashina nomini oladi. Ashina qabiladoshlari o'z urug'ini "turk" deb ataydi. Ashina haqidagi rivojatlardan har bir turk bolasi xabardor bo'lib o'sgan... Turk'larning bayrog'da Ona Bo'ringing oltinrang boshi hilpirat turgan...

Qadimgi turklarning dini... yoxud Ko'k Tangri... Qadimgi turklarning tasavvurida borliq uchta olamdan tashkil topgan: yuqori, o'rta va quyi olam. Yuqori olamning hukmdori, butun dunyoni boshqaruvchi Bosh Xudo-Buyuk Tangri. O'rta olamning hukmdori-Yer-suv, quyi olamniki esa Erlik.

Tangri juda Bahaybat pahlavan, adolatlari va olijanob hukmdor tarzida tasavvur qilingan. Yer insonga tana-vujud, Tangri esa qut - jon ato etgan. Inson umri Tangri tomonidan o'lchab qo'yilgan. Yer-suv Ona, Tangri esa Ota hisoblangan. Olamni yaratishda Tangri bilan birga Umayya-Oqqushi (Tangrichilik dinida hayotning ibtidosi) ham qatnashgan. Olam sudon iborat bo'lgan davrlarda Umay suzib yurgan va u qo'yg'an tuxumdan hozirgi ko'rinishdagi Olam yargalgan...

Tangri abadiyat, Umay-Oqqush esa yerdagi hayotni aks ettirgan.

O'rta olamning asosiy xudosi - hukmdori -Yer-suv bo'lgan. O'n yettita sof ko'ngilli Sanamlar Yer-suvning xizmatida bo'lgan... Ularining eng qudratlisi loxon. U yerning kindigida, Olam daraxti o'sib chiqib, yuqori olamga ko'tiriladigan joyda yashagan.

Quyi olam hukmdori -olovli Xudo Erlik bo'lgan... Erlik Tangrining ukasi (o'lim va narigi dunyo ma'budi) edi. U buzuq niyati tufayli quyi olamga tushib qolgan. Tangri yerni yaratganda hassaning uchi sig'adigan joyni Erlikka berib, shu yerdan quyi olamga tushib ketishni buyurgan. Erlik esa hassasini shu yerga tiqqanda, to'ng'iz, ilon, chayon, qurbaqa kabi maxluqlar chiqib keladi. Erlik ularga "Odamzodga abadiy dushman bo'ling" deydi va quyi olamga tushib ketadi. Tangrining jahli chiqib, Erlikka quyosh bor joyda paydo bo'lishini taqilaydi.

Erlik quyi olam hukmdori bo'lib, u yerda yovuz ruhlar dunyosini yaratadi. Bu yovuz ruhlar esa, Erlik hassasi qoldirgan teshik orqali Yuqori olamga chiqadi va odamlarga kasallik hamda baxtsizliklar olib keladi, bolalarning ruhini o'g'irlay, yovuz ruhlariga aylantiradi.

Erlik temirchilar homiysi, u

turklarga temirchilikni o'rgatgan. Shu sababdan temirchilarni quyi olam bilan bog'langan deb hisoblangan va ulardan hayiqishgan...

Erlkning odamlarga in'om etgan eng buyuk ne'mati – bu o'lim. O'lim yo'q vaqtlarda hayotning oxirgi davri azob-uqubatlardan iborat bo'lgan. Erlkning ruxsati bilan Qarg'a quyi Dunyodan o'limni boshlab chiqqan, bu xizmati evaziga 300 yil yashash va o'laksalar bilan ovqatlanish huquqiga ega bo'lgan...

O'lim Erlkning ixtiyori bilan amalga oshsada, odamlarning umrini Tangri belgilagan. Marhumlar ruhi uning huzuriga chiqqan...

Zardushtiylik
Tangrichilik ajdodlarimizning islomgacha kechgan davri e'tiqodi bo'lgan esada, O'rta Osiyo hududlarida joylashgan turkiy qabilalar e'tiqodida Zardushtiylik dini ham o'ziga xos o'ringa ega. Ma'lumki, zardushtiylik real tarixiy shaxs – Zardusht tomonidan yaratilgan bo'lsada, hanuz ko'plab mavhumliklarga boy din hisoblanadi. Zardushtiylik dini haqidagi ko'plab masalalarda olimlar hozirgacha bir to'xtanga kelishmagan.

Masalan, Zardushtning tug'ilgan yili haqida, tug'ilgan davri haqida tortishuvlar hanuz davom etmoqda. Zardushtning Xorazmda tug'ilgani haqida fikrlar ko'proq bo'lsada, to'liq qabul qilinmagan. Tug'ilgan sanasi ham, turli olimlar tomonidan, milloddan avvalgi 630-553, 618-551, 618-541-yillarda degan farazlar ilgari suriladi. Zardusht so'zining lug'aviy ma'nosi haqida ham turlicha qarashlar bo'lib "Tuya yetaklovchi" degan fikr ko'pchilik olimlar tomonidan tan olingan. Ammo olimlar bir masalada yakdill, din Zardushtga 30 yoshida nozil bo'lgan, 42 yoshida shoh Vishtaspi bu dinga kiritgan, 77 yoshida vafot etgan.

Zardushtiylik dini siyosat va siyosiy jarayonlarga bog'liq bo'lmay rivojlangan yagona dindir. Ammo Zardusht vafotidan so'ng bu din ham ko'plab o'zgarishlarga uchragan. Yakka xudoli dindan ko'p xudoli dinga aylangan. Ahriman, uning yordamchisi Indra, Mitra, Anaxita, Humo kabi xudolar paydo bo'lgan. Dafn marosimlarida ham o'zgarishlar paydo bo'lgan. Marhumlarni oyoqlari va sochlaridan mahkam bog'lab qo'yadigan bo'lishgan. Sababi murdaga o'mashib olgan "marhumlar iblisi" tiriklarga turli kulfatlar keltirishi mumkinligida edi. "Murdalar iblisi" – Nasudan juda qo'rqishgan. Faqat jasad itlar va quzg'unlar tomonidan tozalangandan so'nggina suyaklar ossuariylarga solingan. Ossuariylarda ham maxsus quyosh nuri tushib turishi uchun teshiklar bo'lishi joriy etilgan...

Haoma – mast qiluvchi muqaddas ichimlik ham Zardushtiylik diniga Zardusht vafotidan so'ng kirib kelgan. Hatto sac qabilalaridan bir guruhi "Haumovarka" deb atalgan. Yilda bir marta Mitraga bag'ishlangan bayramda Eron shohlari "haoma" (zaharli qo'ziqorindan tayyorlanadigan sarxush qiluvchi muqaddas ichimlik)dan iste'mol qilib "Eroncha raqs"ga – harbiy raqsga tushishgan.

Har oyingno to'qqizinchi kuni va yilning to'qqizinchi oyi olovga bag'ishlangan. Olov kul'ti (Quyoshga sig'inshga asoslangan diniy tizim) muhim o'rtn tutgan. To'qqizinchi oy hozirgi kalendarda 16 noyabrdan 15 dekabrgacha to'g'ri keladi. Eng muqaddas Olov otashkadalarda yoqilgan Olov hisoblangan. Taxtga o'tirgan Eron shohlari yoqqan Olov o'chirilmadan saqlangan...

Marhumlar ruhi Chinvad ko'prigida saf tortib, gunohlari hakamlari tomonidan maxsus tarozilarda o'lgangan... Gunohkorlar ko'priq tagidagi tubsiz jarlikka uloqlirilgan. Savob ish qilganlar esa Do'xaxga borib, oxirzamonni kutishgan. Oxirzamonda esa erib turgan metall dengizi butun olamni poklagan va abadiy davom ettuvchi jannat davri boshlangan.

Xullas, ajdodlarimiz e'tiqod qilgan Zardushtiylik dini ham mana shunday oddiy va sodda din bo'lgan. Zardushtiylik dini o'z o'rinni islom diniga bo'shatib bergan bo'lsa, Tangrichilik dini esa ko'chmanchi qabilalar orasida anchagina uzoq muddat saqlanib qolgan.

Hurriyat TO'RAQULOVA,
Termiz Davlat universiteti tarix fakulteti talabasi.

Yangi qonun kuchga kirdi

Telekommunikatsiyalar — taraqqiyot omili

O'zbekiston Respublikasining "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi Qonuni 2024 yil 27-dekabrda qabul qilindi. Telekommunikatsiya – signal, belgi, matn, tasvir, ovoz va boshqa turdagi axborotlarni uzatish, qabul qilish va qayta ishlash tizimlari majmui hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy dunyoni telekommunikatsiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internet rivojlangan zamomda mazkur soha qonunchiligini tubdan takomillashtirish zarurati sababli qonun qabul qilindi. Qonun telekommunikatsiyalar sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasida Telekommunikatsiyalar tarmoqlari ommaviy yoki xususiy mulkda bo'lishi mumkin"ligi belgilangan, barcha mulkdorlar teng huquqlarga ega

ekanligi kafolatlangan. Telekommunikatsiya kabellari va boshqa uzatish liniyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan muhofaza hududlari belgilanadi.

Telekommunikatsiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar etib belgilangan. Bular: internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlat yaratish, telekommunikatsiyani xalqaro normalar va standartlarga muvofiq rivojlantirish, xizmatlar sifatini ta'minlash, investitsiyalar jalb etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Vazirlar Mahkamasi sohada yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi

sohada vakolatli davlat organi hisoblanadi. Tabikorlarimizga eslatib o'tmoqchimiz: Qonunning 13-moddasi bilan yuridik shaxslarning ayrim faoliyat turlari bilan litsenziyalari va ruxsat beruvchi hujjatlar asosida faoliyat yuritishi belgilangan.

Shuningdek, telekommunikatsiyalar tarmoqlarini va telekommunikatsiyalar inshootlarini qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarining ekspertizasini o'tkazuvchi yuridik shaxslarni akkreditatsiya qilish, telekommunikatsiyalar tarmoqlarini raqamlash tizimini ishlab chiqish va rejasini amalga oshirish, foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, Internet jahon axborot tarmog'ini milliy segmentining manzil maydonidan foydalanish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash, ko'rsatilaotgan telekommunikatsiyalar

xizmatlarining me'yorlarga muvofiqligi yuzasidan monitoringni amalga oshirish kabi vakolatlar shular jumlasidan.

Qonunda telekommunikatsiyalar tarmoqlari uzatiladigan telefon so'zlashuvlari, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi shart ekanligi belgilangan. Telekommunikatsiyalar tarmoqlarida uzatiladigan telefon so'zlashuvlari, elektron va boshqa xabarlardan sud qaroriga asosan tanishish va cheklash mumkin. Telekommunikatsiya foydalanuvchilariga quyidagi huquqlar berilgan. Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmoqlari xizmatlaridan foydalanish, umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmoqlariga ulanish, operator va provayderlardan sifatlari xizmat ko'rsatishni talab qilish, texnik imkoniyatlar mavjud bo'lsa operator va provayderlarni

Xodimga ish bilan bog'liq hujjatlar va ularning ko'chirma nusxalari berilishidan xabaringiz bormi?

Qonunchilikka ko'ra, xodimning yozma arizasiga asosan ish beruvchi ariza berilgan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay xodimga ish bilan bog'liq hujjatlarini berishi shart.Mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda xodimga mehnat daftarchasini yoxud elektron mehnat daftarchasidan ko'chirma berilishi lozim. Shuningdek, xodimga mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruqning ko'chirma nusxasini berish O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 171-moddasida belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

Ish bilan bog'liq hujjatlarining ko'chirma nusxalari tashkilot rahbarining yoki boshqa vakolatli shaxsning imzosi, shuningdek, muhri (u mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Ish bilan bog'liq hujjatlar va ularning ko'chirma nusxalari xodimga bepul beriladi.

S.AKRAMOV,
V.NAZAROV,
Termiz shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti.

Tansport vositasini qay holatda boshqarish taqiqlanadi?

Haydovchiga transport vositasini spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ta'sirida yoki o'zgacha tarzda mast holatda, sezgirlik va e'tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta'sirida, yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan charchoqlik va betoblik holatida boshqarish taqiqlanadi.

Bunda haydovchilarning transport vositalarini alkogolli ichimlikdan, giyovand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast holda boshqarishi transport vositasini boshqarish huquqidani 1 yilu 6 oydan 3 yilgacha muddatga mahrum qilib, BHMning 25 baravari (9 million 375 ming so'm) miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

S.AKRAMOV,
Termiz shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti.

Vasiylik va homiylik qanday hollarda belgilanadi?

Qonunchilikka ko'ra, vasiylik yoki homiylik yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga quyidagi hollarda belgilanadi:

ota-onasi vafot etganda yoki sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinganda;

ota-onasi sud qarori bilan otanonalik huquqidan mahrum etilganda yoki ularning otanonalik huquqi cheklanganda;

ota-onasi ikki oydan ortiq kasal bo'lishi oqibatida o'zlarining otanonalik majburiyatlarini bajara olmaganda;

ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

ota-onasi bedarak yo'qolganda;

ota-onasi bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda.

S.SAYFIDDINOV,
Termiz shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i.

Quyosh paneli uchun kredit olinganda kompensatsiya beriladi

Qonunchilikka ko'ra, banklar tomonidan "yashil" iste'mol krediti quyosh fotoelektr stansiyasi, quyosh suv isitkichlari va shamol elektr stansiyalarini o'rnatish maqsadlari uchun ajratiladi. Ya'ni BHMning 500 baravarigacha bo'lgan "yashil" iste'mol kreditlari bo'yicha foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 5 foizli banddan ko'p bo'lmagan qismi uchun 3 yil kompensatsiya beriladi. Aniqrog'i, bugungi kunda Markaziy bankning asosiy stavkasi 13,5 foiz, agar kredit 18 foizli bo'lsa uning 5 foizi davlat tomonidan qoplab beriladi. Mazkur kompensatsiya uchun alohida murojaat qilish talab etilmaydi, "yashil" kredit ajratadigan banklar avtomat tarzda arizani o'zlari yuboradi.

D.SHUKUROV,
Termiz shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti.

Ayrim turdagi ma'muriy jarimalar bekor qilindi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choratadbirlari to'g'risida" 2024-yil 14-noyabrda PF-184-son Farmoniga asosan 2025-yil 1-yanvardan quyidagilar uchun ma'muriy javobgarlik bekor qilinadi:

-fiskal belgilarni aks ettirish tartibini buzish;

-majburiy raqamli markirovkalanishi belgilangan tovarlarni (mahsulotlarni) identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzish;

-xodimlar sonini yashirish. 2025-yil 1-martdan boshlab sudda ish yuritish taraffar kelishuv bitimi tuzganligi sababli tugatilganda, davlat boji birinchi instansiyada sudida – 70 foizi, apellyatsiya va kassatsiyada – 30 foizi qaytarib beriladi.

S.SHARIPOV,
Termiz shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti.

J.ELOV,
Muzrabot tumani prokuraturasi tergovchisi.



Жадид боболаримизнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти бизлар учун катта ибрат

(Бошланиши 1-бетда).

– Тараққийпарвар боболаримиз фаолияти ҳақида гап кетганда, бу Шерали Турдиев, Бегали Қосимов, Наим Каримов, Бойбўта Дўстқороев ва бошқа кўплаб олимлар бутун умрини сарфлаган мавзу саналади. Давлатимиз раҳбарининг 2024 йил 30 майдаги “Жадидлар мероси давлат музейини ташкил этиш тўғрисида”ги қарори юзасидан фикрингизни билмоқчи эдик.

– Туркистон жадидлари бўйича нафақат адабиётшунослар, балки тарихчи, педагог, файласуф, санъатшунос олимлар ҳам тадқиқотлар олиб бордилар. Жумладан, Қоҳрамон Ражабов, Диломор Алимова, Улуғбек Долимов, Сирожиiddин Аҳмад ва бошқалар жадидчиликнинг вужудга келиши, ҳаракатнинг мақсад ва вазифалари, жадид мактаблари фаолияти, тараққийпарварларнинг фалсафий, педагогик қарашлари ҳақида асарлар яратдилар.

Давлатимиз раҳбарининг 2024 йил 30 майдаги “Жадидлар мероси давлат музейини ташкил этиш тўғрисида”ги қарори муҳим ва фойдали қарор бўлиб, нафақат Марказий Осиё, балки бутун дунёдаги ягона музей бўлади деб ҳисоблайман. Европада, Осиё давлатларида ҳам тараққийпарварлик ҳаракатлари бўлган, аммо бу ҳаракат намоёндаларини эътироф этувчи музейлар ташкил қилинмаган. Жадидлардан бизга катта илмий ва маънавий мерос қолган. Ўйлайманки, бу музей жадидларнинг Туркистон халқи олдидagi буюк хизматларини ифода этувчи, ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбияловчи музей бўлади.

– Бугун маърифатпарвар боболаримиз ҳаётига оид кўплаб кўргазмалар, анжуманлар, форумлар ўтказилмоқда. Сизнингча, жадидчилик ҳаракати тадқиқотларида яна қайси хизматларга кўпроқ эътибор қаратиш керак?

– Бугун жадидчилик ҳаракати тарихини ўрганиш давлат сиёсати даражасига кўтарилган бир паллада олимларимиз кўпроқ жадидларнинг қатагон қилиниши масаласига аҳамият бермоқда. Аммо қатагонгача бўлган даврда жадидларнинг сиёсий, ижтимоий, иқтисодий ва маданий жараёнларда тутган ўрни кенг тадқиқ қилинмапти.

Халқимиз уларни фақат 1937 – 1938 йиллардаги қатогларнинг қурбонига айланган жабрдийдалар сифатида танипти. Жадид боболаримиз ҳар бирининг ибратли ҳаёт йўли, ижтимоий-сиёсий фаолияти, илмий ва маънавий мероси бор. Буларни ўрганиш керак. ДХХ архивида сақланаётган жадидларнинг тергов ҳужжатлари асосида икки-уч

бетлик оммабоп мақолалар ёзиш билан иш битмайди. Уларнинг Турон – Туркистон халқи олдидagi хизматларини халққа етказиш керак. Бунинг учун Ўзбекистон Миллий архиви ҳужжатларини ўрганиш керак бўлади. Ўзбекистон Миллий кутубхонаси ва Турон кутубхонасидаги сақланаётган асарларини, улар чиқарган газета ва журналларни жуда пухта, ҳижжалаб ўқиш ва тадқиқ қилиш керак бўлади. Биз ҳали жадидларимизни тўлиқ ўрганиб бўлмадик. Уларнинг илмфан олдидagi хизматларини, миллий давлатчилик тарихида тутган ўринларини тарихий нуқтаи назардан муносиб баҳосини бермадик.

– Маълумки, сизнинг фаолиятингизда маърифатпарвар аёлларнинг тақдирини, уларнинг мақсад-муддаолари ҳам кенг ўрин эгаллайди. Жадидлар ҳаракатида аёл-қизларнинг ўрни ва аҳамияти қандай бўлган?

– Туркистон жадидларининг асосий мақсади аёлларнинг ҳам дунёвий билимларини эгаллашларига йўл очиб бериш эди. Туркистон жадидларининг отаси Маҳмудхўжа Бехбудий “Тил масаласи” мақоласида “Тараққий этган миллатларни оналари ўқитар экан, биз аввал онамизни ўқутуб, анга тил ўргатмоқчимиз керак. Чунки бизни илм ва тилсизлигимиз алардандир”, деган бўлса, жадидчилик ҳаракатининг йирки намоёнчаси Абдурауф Фитрат ўзининг “Оила ёки оилани бошқариш тартиблари” китобида “Модомики, илм олиш ҳар бир одам учун диний ва дунёвий мажбуриятларга кирар экан, аёллар ҳам илм ўрганишлари шартдир”, деб ёзади.

Жадидлар хотин-қизларнинг илм олишлари кераклиги ҳақидаги қарашларини тарғибот қилиш билан чеklangан қолмадилар. Балки ўзлари янги усул мактабларида қизларни ўқитиш бўйича дастлабки қадамларни ташладилар. Шундай мактаблардан бири Абдуқодир Шакурий мактаби бўлиб, қизлар учун ҳам синфлар ташкил этилган. Бундай мактаблар Туркистоннинг бошқа шаҳарларида ҳам очила бошлаган. Тошкентдаги Эшонхўжа Хонхўжаев янги усул мактабидан 3 та қиз, Собир Раҳимовнинг мактабидан 15 та қиз ўқиган. Қўқон шаҳрининг Галчасой маҳалласида Мухаммаджон Холиқий 1913 йилда қизлар мактаби ташкил қилган. Абдулла Авлоний мактабида ҳам қизлар ўғил болалар билан ёнма-ён ўтириб, таҳсил олган.

Туркистон жадидлари аёлларнинг билим олишлари ва жамиятнинг тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида ўзларига муносиб иш билан шуғулланишлари учун имкониятлар яратишни ўз оилаларидан бошлайдилар. Жумладан, самарқандлик мактабдор Абдуқодир Шакурий қизлар учун ташкил этган янги усул мактабидан бири, жадидларнинг миллий мақсад-муддаолари ҳам кенг ўрин эгаллайди. Жадидлар ҳаракатида аёл-қизларнинг ўрни ва аҳамияти қандай бўлган?

рий қизлар учун ташкил этган янги усул мактабидан хотини Розияхоним муаллимлик қилган бўлса, Абдурауф Фитрат хонадонидagi адабий ва маърифий муҳит синглиси Маҳбуба Раҳим қизининг шоира бўлиб етишишини таъминлаган. Қўқонлик жадид Мухаммаджон Холиқийнинг синглиси Солияхоним Абдухолиқ қизи эса аксининг мактабида муаллималик қилган.

Туркистонлик зиёли аёлларнинг кўзга кўринган ёрқин вакилларида бири, жадид шоираси Нозимахоним (1870-1924) бўлиб, ўз даврининг маданиятчи, илғор қарашли аёли саналган. Нозимахоним – эркакпарварлик ғояларининг тарғиботчиси эди. Бу ҳол унинг дастлабки мақола ва шеърларидаёқ аниқ кўринади. Унинг 1904 йилда “Туркистон вилоятининг газети”да босилган мақолаларидан бири “Инсонга қанча эрк даркор?” деб номланган эди. Сўнг кетма-кет маҳаллий матбуот саҳифаларида “Хотинлар ҳуқуқига оид”, “Илм ва маориф борасида бир-икки сўз” каби мақолалари чоп этилган. Мақолалар мазмунини, руҳи билан Туркистонда озодлик ғояларининг ёйилиши, хотин-қизлар ўртасида демократик интилишнинг кучайишига хизмат қилган.

Жадидлар фаолиятининг кейинги даврида истеъдодли қизларни хорижга ўқитиш бўйича ҳам катта ишлар амалга оширилди. Марям Султонмуродова, Хайринисо Маждидова ва каби иқтидорли ўзбек қизлари Германиянинг олий ўқув юртиларида таҳсил олиб қайтганлар.

– Жадидлар ва миллий истиқлол ҳаракати вакиллари, яъни шўролар даврида “босмачилар” деб қоралланган, аслида ўз юрти озодлиги учун курашган ҳаракат вакилларининг ўртасидаги муносабатлар қандай эди?

– Жадидлар Россия империясининг босқинчилик ва мустамлакачилик зулмига қарши курашган кўрбошилар билан жуда яқин, аммо яширин алоқада бўлганлар. Жадидлар миллий озодлик ҳаракатининг ғоявий курашчилари бўлса, кўрбошилар кураш билан эрк учун, истиқлол учун курашдилар.

1920 йил Бухода бўлиб ўтган Шарқ халқлари биринчи қурултойида Туркистондан Мунавварқор Абдурашидхоннов, ҳожи Сафо Жўрабоев, Турор Рискулов, Қудратилло Юнусий, Тошпўлатбек Норбўтабеков, Обиджон Маҳмудов, Бухоридан Ражаб Мухаммедов қатнашганлар. Қурултой даврида турк генерали Анвар пошо билан учрашиб, советларга қарши истиқлолчилик ҳаракатларини қўллаб-қувватлаш, кўрбошилар билан бирлашиш кераклиги ҳақида суҳбатлашганлар.

1921 йил 30 июлда Бухоро

шаҳрида жадидларнинг “Туркистон Миллий Бирлиги” ташкилоти тузилади. Ташкилотнинг дастурида истиқлолга эришиш, демократик жумҳурият (республика) тузиш, миллий қўшин (армия) тузиш, иқтисодни бошқариш, темир йўллар, сугориш иншоотлари фаолиятини Туркистон истиқлоли манфаатларига мувофиқ тарзда ташкил этиш, маорифни замонавий даражага кўтариш ва Европа маданияти билан танишишни Россиянинг воситачилигисиз йўлга қўйиш, мактабларни ташкил этиш, табиётини бойликлардан фойдаланиш, миллий масалаларни ҳал этишда ерли аҳолининг миллий манфаатларини эътиборда тутиш ва кўзлаш, диний эркинлик бериш, динни дунёвий ишларга аралаштирмаслик каби мақсад ва вазифалар белгилаб олинади. “Туркистон Миллий Бирлиги” ташкилоти аъзолари билан Шаҳрисабз вилоятидаги Жаббор кўрбоши, Самарқанд яқинидаги Баҳромбек кўрбошилар яқин алоқада бўлганлар. Бу каби мисолларни кўплаб келтириш мумкин.

– Маърифатпарвар боболаримиз ҳаракати, фаолияти, уларга оид тадқиқотларни ёшларга кўпроқ етказиш учун нимага эътибор қаратиш керак, деб ўйлайсиз?

– Бугун жадидчилик ҳаракати бўйича кўплаб тадқиқотлар амалга оширилмоқда, ижодкор зиёлилар, олимлар томонидан асарлар яратилмоқда. Тарих институти бу мавзуда тадқиқот олиб бориш, йиғинлар ўтказиш бўйича етакчилик қилаяпти, десам адашмаган бўламан. Жумладан, Тарих институти илмий ҳодимлари томонидан “jadidlar.uz” платформасининг яратилиши жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши, уларнинг илмий мероси, ижтимоий-сиёсий фаолияти, жадид матбуоти, Туркистон мухторияти тарихи ҳақида етарлича билим олиш имконини беради.

Жадидлар меросини ёшларга кўпроқ етказиш учун жадидларнинг асарлари ва жадидчиликка бағишланган асарларни минглаб нускада чоп этиш, жадидлар ҳақида мультфильмлар, бадиий ва ҳужжатли фильмлар ҳамда сериаллар яратиш, шаҳар ва қишлоқдаги кўчаларга, мактабларга, олий таълим муассасаларига уларнинг номини бериш, улар туғилиб ўсган шаҳар ва қишлоқларга ёдгорлик лавҳалари ўрнатиш, мактаб дарсликларида жадидчилик тарихига кўпроқ соатлар ажратиш, олий таълим муассасалари талабалари учун ўқитиладиган Ўзбекистон тарихи фанида жадидларни алоҳида мавзу сифатида ўқитиш, тарих йўналиши талабаларига жадидчилик тарихини махсус фан сифатида ўқитишни жорий қилиш керак, деб ҳисоблайман.

Миллий ўзлик, миллий рух ва бирдамликни жадидларнинг ибратли ҳаёт йўли ва асарлари орқали етказиш, уларга муносиб бўлишга ўргатиш кенг жамоатчиликнинг муҳим вазифасига айланиши керак.

ЎЗА МУХБИРИ
Назокат УСМОНОВА
суҳбатлашди.

Psixolog tavsiyasi

Maktablardagi zo'ra vonlik bolalar hayotini, ularning va ular yashaydigan jamoalarning kelajagini jiddiy va uzoq muddatli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Dunyo bo'yicha juda ko'plab yoshlar zo'ra vonlik qurboniga aylanib bo'ldi, lekin biz birgalikda harakat qilsak, vaziyatni o'zgartirishimiz mumkin. Bu borada mamlakatimizda yoshlar, jumladan, o'quvchilarning qobiliyatlarini, iste'dodlarini, ichki imkoniyatlarini, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tatbiq etish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Zo'ra vonlikning oldini olish

bu borada maktab o'quvchilari o'rtasida qanday muhim ishlarni amalga oshirish lozim?

Kishi dunyoga kelgandan so'ng, avvalo, uning ota-onasi farzandining unib-o'sishini, kamol topishini istaydi. Lekin ba'zi bir zararli odatlar bu borada farzandning komil inson bo'lib yetishishida xalaqit beradi. Shulardan biri yuqorida aytganimizdek, zo'ra vonlikdir. Zo'ra vonlikning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri jismoniy zo'ra vonlik hisoblanadi. U jarohatlar shaklida namoyon bo'ladi. Ba'zi shaxslar o'z manfa'atlarini himoya qilish yoki har qanday harakatlar uchun majburlash orqali o'z manfa'atiga erishish yo'lida undan foydalanadilar. Keyingisi ruhiy (ma'naviy-hissiy) zo'ra vonlik bo'lib u doimiy og'zaki tahdidlar, haqoratlar orqali jabrlanuvchini tashvishli holatga olib boradi. Siyosiy zo'ra vonlik esa insonlarni hokimiyatga, avtoritarizmga majbur qiladi. Bu jumalarni yana ko'plab davom ettirish mumkin...

Oiladagi zo'ra vonlik bu – shaxsning boshqasiga salbiy ta'sirining eng ko'p tarqalgan shakllaridan biridir. Ko'p hollarda qurbonlar ayollar va bolalar – jamiyatning zaif odamlari. Bolalarga nisbatan zo'ra vonlik o'zini boshqa shakllarda namoyon qilishi mumkin. Oiladagi zo'ra vonlik bu er-xotin yoki boshqa yaqin munosabatlardagi kishilardan birining ikkinchisiga jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki moliyaviy zo'ra vonlik ko'rsatishidir. Uydagi zo'ra vonlikning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u o'zini qayta-qayta takrorlaydi.

Oilaviy zo'ra vonlikning sabablari nimada? Har bir oilaviy zo'ra vonlikning o'ziga yarasha sabablari bor. Ammo ularga olib boruvchi omillar qator umumiylikka ega. Uydagi zo'ra vonlikning rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar quyidagilardir: uning bolalik davridagi sheriklarining, ota-onasining tajovuzkor xatti-harakatlari. Bunday holatda u o'zini tutish modelini ko'chirib, uni oilasida ko'paytiradi. Spirtli ichimlik va giyohvand moddalarni ichish odamning

ruhiy holatini kuchaytiradi. Madaniyatning past darajasi, axloqiy tushunchalar yo'qligi. Bu oilada tajovuzkor xatti-harakatga olib keladigan sabablarning mavjudligi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qiyin iqtisodiy va maishiy sharoitda oiladagi ichki muhit ham zo'ra vonlikka olib kelishi, bu esa o'z navbatida, qonun normalariga zid xulq-atvor normalarini keltirib chiqarishi mumkin. Bu narsa albatta maktabga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Siz ota-onaga bo'lasizmi yoki o'qituvchi yo oddiy odam farzandining bilan doimo yaxshi narsalar haqida, sog'lom do'stlik haqida, atrof-muhitga doimo optimist ko'z bilan qarashni o'rgatish va suhbatlashing. Farzandingiz kim bilan gaplashdi, kim bilan tushlik qildi, yaqin do'sti kim, maktabda nimalar bo'ldi, barchasi haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lsangiz juda ham yaxshi.

Hurmatli ota-onalar: 1. Farzandingizga zo'ra vonlik haqida gapirib bering. Zero, farzandingiz bilsin bu narsaning salbiy oqibatlarini. 2. Ochiq va tez-tez suhbatlashing darslari, his-tuyg'ulari maktabdagi vaqtlari va ularning internetdagi faoliyati haqida ham so'rang. 3. Farzandingizga zo'ra vonlikka qarshi kurashishda o'rnak bo'lishga yordam bering. 4. Farzandingizga o'ziga ishonchini oshirishiga yordam bering. Darsdan tashqari tadbirlarda qatnashiga undang. Bu o'ziga nisbatan ishonchni oshiradi, do'stlar orttirishiga yordam beradi.

5. Uning onlayn hayotidan ham xabardor bo'ling, foydalanadigan platformalari bilan tanishing. Internetda duch keladigan turli xatarlar haqida ogohlantiring. Shuni aytish kerakki, bolalarga nisbatan zo'ra vonlik natijasida ijtimoiy yo'qotishlar: birinchi navbatda, inson hayotini yo'qotish; ikkinchidan, ruhiy va jismoniy salomatlik buzilishi, ta'lim va

kasbiy saviyalar pastligi, zo'ra vonlik qurbonlarining jinoyi xulq-atvori tufayli jamiyatning samarali a'zolarini yo'qotish;

uchunchidan, jismonan va ma'naviy jihatdan sog'lom bolalarni tarbiyalashga qodir ona-onalardan ayrilish;

to'rtinchidan, bu jamiyatda shafqatsizlikning ko'payishi, chunki sobiq qurbonlarning

o'zlari zo'ra voniga aylanadi.

Muhtaram o'qituvchilar:

1. Sinfingizni boshqarish uchun ijobiy intizom usullaridan foydalaning.

2. O'quvchilarning yomon tushunchalarini yaxshilang. Ular bilan bo'ling haqida vaziyatlarni muhokama qiling, bunga duch kelgan tengdoshlarga yordam berish usullarini ulashing.

3. Bolalar o'rtasida xabardorlikni oshiring, ya'ni zo'ra vonlikka duch kelganda nima qilish kerakligini bilishi uchun imkoniyatlar yarateng.

4. Ota-onalarni jalb qiling. Doimiy ravishda ota-onalarni farzandlarini rivojlanishi va ular bilan bog'liq barcha muammolar haqida gaplashishga taklif qilib turing. Ota-onalarga farzandlarining yutuqlari haqida xabar yozilgan kichik qutlov maktublari yuborish amaliyotini kiriting.

Aksariyat o'smirlar o'z atrofida qatnashgan tomonidan o'zlariga nisbatan bir xil zo'ra vonliklarga duchor bo'lishlarini, bunday vaziyatlarda yetarlicha javob berish ko'nikmalariga ega bo'lmisliklarini inobatga olsak, maktab psixologik xizmati, o'qituvchilar, huquq-tartibot idorasi xodimlarining maxsus tashkil etilgan faoliyati zarurligi ayon bo'ladi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, ota-onalarda zo'ra vonlikka qarshi turishi va travmatik tajribalar oqibatlarini kamaytirishi va bartaraf etishi ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Ularning farzandlari bilan ko'proq vaqt o'tkazishi, qiziqishi bo'yicha sharoitlarni yaratib berishi ham e'tiborni talab qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish, tazyiq va zo'ra vonlikning oldini olish bo'yicha ishlarni tizimli tashkil etsak, shubhasiz, izchil ravishda sodir etilayotgan zo'ra vonliklarning kamayishiga olib kelishi aniq.

Gulnora
MAMATQULOVA,
19-maktabning
amaliyotchi-psixologi.

Мутахассис оғоҳлантиради

Ис газидан эҳтиёт бўлинг

Республикамызда сўнгги йилларда куз-қиш иситиш мавсумида содир бўлаётган фавкуллода вазиятларнинг аксарияти ис газидан заҳарланиш ҳолатлари билан боғлиқ. Маълумки, ис гази (CO) рангсиз, ҳидсиз, корхона шароитида энг кўп учрайдиган заҳарли бирикма бўлиб, табиий газ, ёқилги, кўмир, ўтин чўғлари тўлиқ ёнмаслиги оқибатида, ҳосил бўлади. Тутун таркибида 3 фоиз ишланган газда 13 фоиз портловчи газлар таркибидан эса 50-60 фоизгача ис гази бўлади.

Ис газидан шомоллатиш тизими яхши ишламайдиган органик моддаларни ишлаб чиқарадиган корхоналарда, автоуловлар турор паркларида, янги бўялган ва шомоллатилмаган хоналарда, шунингдек, уй шароитларида табиий газ чикиб турганда ва печка билан истиладиган уйлар, ҳаммомларда, дам олиш палаткалари-

да ёнувчи модданинг тўлиқ ёнмаслиги натижасида заҳарланиш мумкин. Ис гази организмга нафас аъзолари орқали таъсир этади. Ушбу газ гемоглобин билан кислородга нисбатан 300 мартаба кучли бирикма – карбоксигемоглобин ҳосил қилади. Оқибатда гемоглобиннинг тўқималарга кислород ташиш хусусияти кескин пасайиб, гипоксияга, оғир ҳолатларда эса аноқсияга олиб келиши ҳамда шу тарикка инсон ҳаётдан кўз юмиши мумкин.

Тахилларга кўра, ис газидан заҳарланиш ҳолатларининг аксарияти куйидаги сабабларга кўра юзага келмоқда:

–фуқаролар томонидан газ ва муқобил ёқилги турларидан фойдаланишда хавфсизлик чораларига риоя этмаслик; –ностандарт қўлбола ясалган ёки сертификатга эга бўлмаган иситиш печлари ва анжомларидан фойдаланиш;

sababli **BEKOR QILINADI.**

xxx
To'rayev Jabbor Fayzulla o'g'liga 2024-yil 28-fevralda berilgan «B, C» toifali AG № 1985317 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

xxx
Kucharov Manuchev Djurakulovichga 2023-yil 25-avgustda berilgan «B, C»

toifali AG № 1352006 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

xxx
Xolmurodov Abbosjon Abduqaxxor o'g'liga 2022-yil 13-aprelda berilgan DL000 № 4344476 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Хуқуқингизни биласизми?

«Олинган кредитни қайтариш мажбуриятини бошқа шахсга ўтказса бўладими?»

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 322-моддасига асосан, қарздорнинг ўз қарзини бошқа шахсга ўтказиш мумкин. Фақат бунга кредитор (кредит берган банк)нинг розилиги билан йўл қўйилади.

Янги қарздор кредитор билан дастлабки қарздор ўртасидаги муносабатларга асосланган барча эътирозларни кредитор талабига қарши қўйишга ҳақли. (Яъни банкдан кредит олган шахс унга кредит берган банкка қандай эътироз билдириши мумкин бўлса, уни қарзини тўлашни бўйича олаётган иккинчи шахс ҳам шундай ҳуқуққа эга бўлади.)

Агар кафил ёки гаровга қўювчи шахслар янги қарздор учун жавоб беришга рози бўлмаса, қарз бошқа шахсга ўтказилиши билан кафилик ёки учинчи шахс томонидан белгиланган гаров бекор бўлади. (Яъни “мен биринчи кредит олган шахсга кафил эдим.

Шартнома ўзгарганидан кейинги кредит тўловчини мен танимайман ва унга кафил бўлишни истамайман” деб ўртадаги кафил ўйиндан чиқishi ҳам мумкин дегани бу.)

«Аёллар 53 ёшдан пенсияга чиқishi мумкинми?»

Ўзбекистон Республикаси “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қону-нининг 14-моддасига асосан технологияда, ишлаб чиқариш ва меҳнатни ташкил этишдаги ўзгаришлар, ходимлар соғи ёки иш хусусиятининг ўзгаришига олиб келган ишлар ҳажмининг қисқарганилиги ёхуд корхонанинг тугатилганлиги муносабати билан ишдан озод этилган ва ишсиз деб эътироф этилган шахслар:

эркаклар – 58 ёшга тўлганда ва иш стажи камида 25 йил бўлган тақдирда;

аёллар – 53 ёшга тўлганда ва иш стажи камида 20 йил бўлган тақдирда пенсия олиш ҳуқуқига эга бўладилар.

Ф.ТҲИЧЕВА,
юрист.



Ҳарбийлар билан давра суҳбати

Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинлари ҳарбий қисми ҳарбий хизматчилари Ўзбекистон Республикаси Қуrolли Кучлари ташкил этилганлигининг 33 йиллигига бағишлаб Музработ политехникини ўқувчилари билан давра суҳбати ўтказди.

«Қуrolли кучлар – юрт таъини» мавзуйида уюштирилган тадбирда ҳарбий хизматчилар

Миллий армиямизнинг ташкил топиши, ўтмиши ва бугуни, яратилган шарт-шароитлар, салохияти ва келажаги ҳақида ўз фикр-мулоҳазаларини билдирдилар. Суҳбат нияҳосида ўқувчилар ўзларини қизқтирган саволлар билан мурожаат қилиб батафсил жавоблар олдилар.

Ф.ШЕРАЛИЕВ,
ДХХ Чегара қўшинлари зобити, капитан.

60 ёш – муборак ёш

СЕРМАЗМУН УМР СОҲИБИ

Лавҳамиз қаҳрамони Жумакул Назаровнинг болалиги шу замин – (ҳозирги) Музработ туманида ўтди, суяги қотди. Отаси Ҳабибулла Назаров чўлқувар деҳқонлардан бўлган. У 9 нафар фарзанд – 5 ўғил, 4 қизни тарбиялаб, кўриқни обод қилишга катта ҳисса қўшган. Ана шу оилада 1965 йил 1 январда яна бир ўғил дунёга келди. Унга яхши ниятлар билан Жумакул деб исм қўйишди.

Жумакул Назаров 1972 йил тумандаги 8-умумтаълим мактабига 1-синфга қабул қилинган. Ўша пайтлар, яъни болалигидаёқ спортга иштиёқи баланд эди. Айниқса, кураш жони дили бўлган. Довруғдор полвонлар – Орзу Хушвақтов, Тошпўлат Назаров, Тоир Акрамов, Номоз Ғайниддинов, Саидахмад Ражабов, Тошмак Жўраевларга ҳавас қилиб, уларни устоз билиб, тўйларда спорт мусобақаларида майдонга тушиб бел олишган. Курашдаги 30 йиллик фаолияти давомида от, ҳўкиз ва бошқа турли совринларни қўлга киритган.

Спортга бўлган иштиёқ Ж.Назаровни Ойбек номидаги Термиз Давлат педагогика институтининг жисмоний тарбия факультети сари ўқишга ундади. Шунингдек, у 1985-1987 йилларда ҳарбий хизматда бўлди. Фурсати етиб, олий маълумотли ёш кадрни Норбой Умаров директорлигидаги ўзи ўқиган мактабга жисмоний тарбия ўқитувчиси этиб ишга қабул қилишди.



Ёш мутахассиснинг тажрибаси тобора сайқал топиб, 2002-2016 йиллар тумандаги 9-Болалар ва ўсмирлар спорт мактаби илмий бўлим мудири, мактаб директори, 2016-2017 йиллар туман Болалар ва ўсмирлар спорт мактабининг ўқув ишлари бўйича директор ўринбосари, туман жисмоний тарбия ва спорт ишлари бўлими бош мутахассиси бўлиб ишлади. 2018 йилдан ҳозирги кунга қадар туман “Баркамол авлод” болалар мактаби директори вазифасида ситқилдиган меҳнат қилиб келаётир.

– Фаолиятим давомида кўплаб шогирдлар тайёрладим,- дейди Жумакул Назаров суҳбатимиз чоғида. – Улар орасида спорт соҳасида фаолият олиб бораётганлардан Ойбек Жўраев, Севара Раҳмонова, Исобек Муҳаммадиев, Ўрал Бобоназаров, Абдулло Поёнов ва “Худудий электр тармоқлари” АЖ энергосавдо филиали Сурхондарё бўлини маси бўлим бошлиғи Олим Турсунов, Дав-

лат хавфсизлик хизмати ходимлари Ислоҳ Аҳмедов, Бўри Қудратов, Қизирқ тумани мактабгача ва мактаб таълими бўлими мудири Саидахмад Абдурасулов, туман йўллардан фойдаланиш корхонаси давлат муассасаси директори Одил Абдурасуловлар номини фахр билан айта олам.

Жумакул Назаровнинг оила кўргони мустаҳкам. Бу оила “Яккатол” маҳалласининг намунали хонадонларидан бири ҳисобланади. Завжаи муҳтарам – Гулчехра Турдиева тумандаги 54-умумтаълим мактабининг бошланғич синф ўқитувчиси. Ўғли Аббос Тошкент Ренессанс таълим универси-тетининг битирувчиси, қизи Гўзал 54-мактабнинг 8-синфида ўқийди. Шириндан-шакар 4 нафар неварга оиланинг овунчоғи, ҳаёт мазмуни.

“Меҳнатингни ҳалол қилсанг, ҳузурингни кўрасан”, деганларидай аини дамда Жумакул Назаров ҳам муборак 60 ёшга тўлди. Шу муносабат билан “Шукрона” тантаналар саройида юбилейни қутлаш учун барча ёру дўстлар, яқинлар ҳозир бўлишди. Табриклар янгради, шўхчан тароналарга қизгин рақслар кўр олди.

Биз ҳам мавридида, Жумакул Назаровга узок умр, мустаҳкам соғлиқ тилаб қоламиз. **Сироҳиддин ҚУЛБООБЕВ,** **Ўзбекистон Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети талабаси.** *Суратда: Жумакул Назаров.*



Ватан ҳимоячилари устози

Ўқитувчилик – шарафли касб. Аммо унинг этагини тутиш ҳаммага ҳам насиб қилавермайди. Боиси бу касб эгаси бўлиш учун кишида кенг феъл, меҳрибон қалб, айниқса ёшларни бутун инжиқликлари билан яхши кўрадиган хусусиятлар керак. Бундай сифатлар, хусусан, инсоний фазилатлар устоз ва мураббий Равшан Сапаровда мужассам. Ҳаётда, меҳнат фаолиятида эришган муваффақиятларининг сир-си-

ноати ҳам ана шунда.

Равшан Сапаров ўрта мактабни битирганидан сўнг бир муддат қишлоқ ҳўжалигида фаолият юритди. Фурсати етиб, икки йил ҳарбий хизматда бўлди. Ҳарбий интизом ва устоз талабларига, тартиб-қоидаларга қалб амри билан қатъий амал қилгани учун ҳарбий қисм раҳбариятидан муродом “Ташаккурнома”лар олар, уни сафдошларига намуна сифатида кўрсатишарди.

Армия сафидан кучга тўлиб юртга қайтган норгул йигит, албатта, ўқишга қарор қилди. Ҳеч иккиланмай ўша пайтда вилоятда нуфузли ўқув даргоҳларидаги бири бўлган туман марказидаги қишлоқ ҳўжалигини механизациялаш техникумига ҳужжат топширди ва уч йил таҳсил олди. Ўқишни битиргач, уни техникумга олиб қолишди. Ишдан ажралмаган ҳолда Термиз давлат педагогика институтининг умумтехника ва меҳнат таълими йўналишида ўқиб, олий маълумотли мутахассис бўлди. Шу билим

тенант Равшан Сапаровни шу мактабнинг ёшларни қаҳирқ-қача тайёрлаш раҳбари этиб тайинлашди.

Ўзбекистон Қуролли Кучлари офицери Равшан Сапаров бугунги ўқувчи – бўлажак Ватан ҳимоячиларини қаҳирқ-қача тайёрлаш ботида катта тажрибага эга. Ёшларга ҳарбий тактика ва стратегияни ўргатиб, уларни ватанпарварлик, ўз эл-юртини севиш, душманга нафрат кўзи билан қараш руҳида тарбиялайди. Шунингдек, ўсмирларни замонавий ҳарбий қурол-яроқлар, техникалар ва алоқа воситалари билан яқиндан таништиради ва сабоқлар беради. Бу хизматлари учун ҳарбий таълим раҳбари туман мудофаа ишлари бўлими томонидан бир неча мартаба рағбатлантирилган.

Маҳоратли муаллим Равшан Сапаров ҳадемай таваллуд айёми, қутлуг 66 ёшини нишонлайди. У кишини шукрона қилиб қутлаб, сихат-саломатлик ҳамда шавкатли Ватан ҳимоячиларини тарбиялашдаги фаолиятларида ҳамиша зафар ва омад ёр бўлишини тилаймиз.

А.ЙЎЛДОШЕВ.

Суратда: (чапда) Р.Сапаров.

Кутубхона – нурхона

Замонавий қулайликлар



Давлатимиз раҳбарининг “Ўзбекистон Республикаси аҳолисига ахборот-кутубхона хизмати кўрсатишни янада такомиллаштириш тўғрисида” 2019 йил 7 июндаги қарори асосида мутасадди масъуллар томонидан туман ахборот-кутубхона марказида ҳам сезиларли ишлар амалга ошириб келиняпти.

Хусусан, Сурхондарё вилояти Ҳокимининг 2024 йил 15 ноябрда Музработ туманига ташрифи чоғида берган топшири-ғига биноан туман ахборот-кутубхона маркази моддий-тех-ник базасини мустаҳкамлаш учун 110 000 000 сўм пул маб-лағлари ажратилган эди. Шун-га қўра кутубхонамизга 15 ком-плект замонавий компьютер

жамланмаси, А-3 форматдаги “EPSON” русумли рангли принтер, шунингдек, китоблар-нинг электрон намунасини тай-ёрлаш учун А-3 форматдаги сканер апарати ҳамда ком-пютерлар учун стол-стуллар тўплами олиб келинди.

Марказимизда янги йил бошидан китобхоналарга элек-трон кутубхона хизматидаан фойдаланиш учун барча шарт-шароит ва қулайликлар яра-тилди. Бу имкониятдан фойда-ланишлари учун туманимизда-ги барча фаол китобхоналарни марказий кутубхонамизга чор-лаб қоламиз.

Ботир ХУРСАНОВ, **туман ахборот-кутубхона маркази директори.** *Суратда: ёш китобхоналар.*

Олов – «тилсиз ёв»

Профилактика тадбирлари

Музработ тумани Фавку-лодда вазиятлар бўлими хо-димлари томонидан туманда-ги корхона, муассаса ва таш-килот биноларининг куз-қиш мавсумига тайёргарлиги юза-сидан профилактика тадбир-лари амалга оширилмоқда.

Куз-қиш мавсумида иссиқ-ликка бўлган талаб ҳам, эҳти-ёж ҳам ошади. Натижада ёнгинлар рўй бериши эҳти-моли эса ўз-ўзидан кўпаяди.

Профилактика тадбирлар давомида ёнғин хавфсизлиги ходимлари тумандаги умум-таълим ва мактабгача таълим ташкилотлари, корхоналар ва аҳоли хонадонларидан бўлиб, куз-қиш мавсуми учун олиб борилган тайёргарлик ишла-ри билан яқиндан танишди-лар.

Тадбирлар давомида ёнғин вақтида тўғри ҳаракатланиш ва ёнғин ўчириш анжомлари-дан тўғри фойдаланиш тар-тиблари хусусида атрофлича тушунча берилди. Шунингдек, қўлбола электр ва газ иситиш печларидан фойдаланиш, ёнғин хавфсизлиги қоидала-

рига риоя этмасдан, носоз электр жиҳозларидан, электр асбобларини ўчирмай қаров-сиз қолдириш, айниқса, улар-нинг яқинида ёш болаларни назоратсиз қолдириш, электр тармоғига юқори қувватли бир неча электр асбоблари-ни улаш тармоққа оғирлик қилиши ва ёнғин келиб чиқи-шга сабаб бўлиши мумкин-лиги айтилди.

Қўлбола сақлагичлардан фойдаланмаслик, бунда ёнғин чиқиши муқаррарлиги ҳамда ис газидан сақланиш бўйича кенг қамровли тушунтириш тарғибот-ташвиқот ишлари амалга оширилди. Ўшбу тад-бир давомида мутасадди таш-килот ходимлари билан бира-га ташкилотта-ташкилот, уйма-уй юриш вақтида газ ва электр тизимида камчиликлар аниқланиб, уларни жойида бартараф этилиши таъмин-ланди.

С.ҚОДИРОВ, **Музработ тумани фавкулодда вазиятлар бўлими П ва НБ ПН инспектори, лейте-нант.**

Qonun asosida

YOSHLARGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR



«O‘zbekiston – jannatmakon yurt», deya ko‘p bora eshitganmiz. Darhaqiqat, bizning diyorimiz tengi yo‘q o‘lkadir. Mamlakatimizning kelajagi bo‘lmish biz, yoshlarni har tomonlana yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasida bugungi kunda o‘ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda. Yoshlarning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda. Ayniqsa, bu borada «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi yoshlarni har tomonlana qo‘llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlarini yaratish sohasidagi yangilik bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davlat rahbari tomonidan yosh avlodni shakllantirishning dastlabki pallasida tarbiya masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Zero, tarbiya bo‘lmagan joyda ta‘lim ham bo‘lmagligi barchamizga ma‘lum. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev deyarli barcha islohotlarning bardavomiyligini yoshlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatida ko‘rayotganining yaqqol tasdig‘i sifatida boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta‘lim va sport sohasiga bo‘lgan e‘tiborni ko‘rish mumkin. Bu islohotlarning yutug‘i esa korrupsiyaga qarshi kurashni

hamda yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini orttir- moqda.

Bugungi kundagi davlat siyosati yoshlarning zamon talablari darajasida ta‘lim olishi, o‘tib-ulg‘ayishi, o‘z bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat bilan qaraydigan, o‘zining qat‘iy hayotiy e‘tiqod va qarashlariga ega bo‘lgan, «halollik vaknasini bilan emlangan», milliy mentalite- timizga yot zararli ta‘silarga qarshi turishga qodir yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida mamlakatimiz yoshlarining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o‘tib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberalashtirish jarayonlarining idal rivojlanishi, yosh avlodning ilm-fan, sport sohasida erishayotgan yutuqlari bu sohadagi islohotlarni yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarishimiz uchun zarur sharoitlarni yuzaga keltirayotgani hech kimga sir emas.

«O‘zbekiston-2030» strategiyasi yoshlarga va tadbirkorlikga oid maqsadlarga aynan uyg‘undir. Xususan, ushbu strategiyada yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta‘minlash uchun har bir viloyatda bittadan «Kreativ park»lar yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalb qilishi, har yili xorijning nufuzli oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborishi, maktab bitiruvchi- larining kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta‘minlashi, kitobxon yoshlar sonini 5 million nafarga yetkazishi, «Top-500» ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta‘lim dasturi asosida

«ikki diplomli tizim»ni joriy etish kabi maqsadlar o‘rin olgan.

Yurtimiz ilgari qoloch, iqtisodiyoti beryoqlama rivojlangan, paxta yakkahokimligi avj olgan agrar o‘lkadan bugungi kunda izchil taraqqiy etib borayotgan zamonaviy industrial mamlakatga aylandi. O‘zbekistonda keyingi yillarda inson huquqlari himoyasi, so‘z erkinligini ta‘minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar Yevropa mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholalanmoqda.

Shu o‘rinda ta‘kidlash kerak, qaysiki jamiyat a‘zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma‘rifat, yuksak ma‘naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek: «Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!». Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma‘rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘ldan borish imkoniyatini beradi.

Zero, Prezidentimiz aytganlaridek: «Hech shubhasiz, o‘z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Uchinchi renessans poydevorini yaratishdek ezuq maqsad yo‘lida birlashtirib, yana-da kuchli qilmoqda». Bu ishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo‘lishning o‘zi katta baxt va sharaftir.

Marjona AMONOVA, **Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi.**

Мактабдан ташқари таълим

Қишки таътилга мазмун киритиб...

Ўқувчи ёшларнинг қишки таътил кунларини мароқли ва мазмунли ўтказиш мақсадида туман “Баркамол авлод” бола- лар мактабида турли тадбир- лар, кўрик-танловлар ва маш- гулотлар ташкил этилди.

Таътил якунида услубчилар, тўғрақ раҳбарлари ва аъзо- лари фаолигида ижодий се- минар бўлиб ўтди. Тадбири мактабимиз директори Ж.На- заров очиб берди. Тўғрақ аъзоларининг бадий чикиш- лари, эртак қаҳрамонларини

акс эттирган сахна кўриниш- лари, қаратчи спортчилар- нинг кўргазмалли намойишла- ри барчани хайратга солди.

Шунингдек, семинар доира- сида ўтказилган расмлар кўрик-танлови, “Ёш дастури” тўғраги машғулоти ва “Ёш пазанда” тўғрагининг амалий машғулоти, айниқса, ўқувчи ёшларга манзур бўлди.

Ш.КАРИМОВА, **туман “Баркамол авлод” бо- лалар мактабининг бўлим бошлиғи.**

Семинар-тренинг

«Китобхонлик – бебаҳо бойлик»



Президентимизнинг хайр- ли ташаббусларини қўллаб- қувватлаш ҳамда ёшлар ўрта- сида китобхонлик маданияти- ни шакллантириш мақсадида тумандаги 9-давлат мактаб- га таълим ташкилотида ота- оналар иштирокида “Кито- бхонлик – бебаҳо бойлик” ном- ли семинар-тренинг ўтказил- ди.

Семинарда тарбияланувчи- лар томонидан рақслар ва тур-

ли қизиқарли чиқишлар на- мойиш қилинди. Тадбирга та- шриф буюрган ота-оналар ўрта- сида ҳам қизиқарли ўйинлар ташкил этилди.

Тадбир сўнгига ота-оналар ва тарбияланувчилар учун “Меҳрибонлик корпуси” томо- нидан тақдим этилган кито- блар ушмилди.

Умида ҚУВОНДИКОВА, **9-давлат мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиси.**

Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси Музработ тумани бўлими жамоаси бўлимининг фуқароларга хизмат кўрсатиш шўъбаси етакчи мутахассиси Азамат Норкуловга онаси **Ойимхол ДОНАЕВА**нинг вафоти муносабати билан таъзия билдирди.

Gazeta 2010-yil 9-aprelda Surxondaryo viloyati Matbuot va axborot hududiy boshqarmasida 11-010 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. ISSN 2181-7006.

Buyurtma G-2130 nusxada bosildi. Qo'ng'uz bichimi A-2. Hajmi 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Nashr indeksi-473.

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi. Sahifalovchi B.Shoyardonov. Navbatchi muharrir A.Yo'ldoshev. Navbatchi O.Hakimova.

Gazeta «Surxon tongi» va «Zarya Suxpna» gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: 190100, Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy. Topshirish vaqti – 14-00. Topshirildi – 14-00

MUZRAVOT

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari
Muзrabot tumani Kengashi
va tumani hokimligi

Muharrir
Abdusalom YO'LDOSHEV

Tahririyat manzili:
191300. Muзrabot tumani, Qal'obod qo'rg'oni,
Amir Temur ko'chasi, 38-uy.
Telefon: (+998) 99 671 57 58.